

AL-XORAZMIYNING “KITOB SURAT AL-ARZ” ASARIDAGI GEOGRAFIK VA ONTOLOGIK QARASHLAR

¹Xandamova Ma'rifat Akramovna, Samarcand davlat chet tillar instituti professori, Falsafa fanlari doktori (DSc)

²Jantayev Maqsud Ibragimovich, Samarcand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi



<https://orcid.org/0009-0001-7684-2365>
e-mail:
marifathamdamova73@gmail.com

GEOGRAPHICAL AND ONTOLOGICAL VIEWS IN AL-KHWARIZMI’S “KITAB SURAT AL-ARZ”

¹Khandamova Ma'rifat Akramovna, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Professor, Doctor of Philosophy (DSc)

²Zhantayev Maqsud Ibragimovich, Independent researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ И ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В “КИТАБ СУРАТ АЛЬ-АРЗ” АЛЬ- ХОРЭЗМИ

¹Хандамова Маърифат Акрамовна, профессор Самаркандского государственного института иностранных языков, доктор философских наук (DSc)

²Жантаев Максуд Ибрагимович, независимый научный исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков



Annotatsiya: Ushbu maqola Al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” (Yerning surati kitobi) asaridagi geografik va ontologik qarashlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asar, faqat geografiya fanining rivojiga emas, balki ilm-fan va tafakkur tarixiga ham muhim hissa qo’shgan asar sifatida alohida o’rin tutadi. Maqolada Al-Xorazmiy tomonidan ilgari surilgan geografik tasavvurlar va ularning ilmiy asoslari o’rganilib, Yerni tasvirlashda yuzaga kelgan ontologik savollar va falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. Xorazmiy, avvalgi ilmiy merosdan foydalangan holda, o’z davridagi geografik bilimsizliklarni bartaraf etishga intilgan va ilmiy sohalarni bir-biriga yaqinlashtirgan.

Kalit so‘zlar: Al-Xorazmiy, kitob surat al-arz, geografiya, ontologik qarashlar, ilmiy tafakkur, falsafa, ilmiy meros, kartografiya.

Abstract: This article is devoted to the analysis of geographical and ontological views in Al-Khwarizmi’s work “Kitab Surat al-Arz” (Book of the Image of the Earth). The work occupies a special place as a work that made an important contribution not only to the development of geography, but also to the history of science and thought. The article studies the geographical ideas put forward by Al-Khwarizmi and their scientific foundations, and analyzes the ontological questions and philosophical views that arose in

describing the Earth. Al-Khwarizmi, using the previous scientific heritage, sought to eliminate the geographical ignorance of his time and brought scientific fields closer together.

Keywords: Al-Khwarizmi, “Book Surat al-Arz”, geography, ontological views, scientific thought, philosophy, scientific heritage, cartography.

Аннотация: Статья посвящена анализу географических и онтологических воззрений в “Китаб Сурат аль-Арз” (Книге об изображении Земли) Аль-Хорезми. Труд занимает особое место как труд, внесший значительный вклад не только в развитие географии, но и в историю науки и мысли. В статье рассматриваются выдвинутые Аль-Хорезми географические концепции и их научные основы, а также анализируются онтологические вопросы и философские взгляды, возникшие при описании Земли. Используя предшествующее научное наследие, Аль-Хорезми стремился устраниить географическое невежество своего времени и сблизить научные области.

Ключевые слова: Аль-Хорезми, “Книга Сурат аль-Арз”, география, онтологические взгляды, научная мысль, философия, научное наследие, картография.

KIRISH. Al-Xorazmiy (780-850) o‘rta asrlarning eng mashhur ilmiy figuralaridan biri bo‘lib, uning geografiya va matematikaga qo‘sishgan hissasi insoniyat tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xorazmiy ilm-fan tarixida juda katta meros qoldirgan shaxs bo‘lib, uning eng muhim asarlaridan biri “Kitob surat al-arz” (Yerning surati kitobi)dir. Ushbu asar, faqat geografiya sohasida emas, balki tafakkur tarixida ham muhim o‘rin tutadi, chunki unda Yerni tasvirlash orqali uning shakli, hududlari, tabiiy xususiyatlari va insoniyat bilan aloqasi masalalari yoritilgan. Xorazmiy bu asarida geografik tasavvurlarni aniq, ilmiy asosda taqdim etgan bo‘lsa, shuningdek, u ontologik savollarni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni Yerning mohiyati, shakli va insoniyat bilan aloqasi haqida o‘ziga xos falsafiy qarashlarni ilgari suradi.

Maqolamizda, ushbu asarning ilmiy ahamiyatini va uning tarixiy kontekstini yoritishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Xalifalikda savdo karvonlari Misr, Damashq, Marv va Kot kabi shaharlardan Chin va Hind mamlakatlariga borar edi. Mana shunday yaqin va uzoq ellarga bo‘ladigan safarlar, savdo va moliya ehtiyojlari faqat xalifalik mamlakatlarini, hatto uzoqlardagi noma’lum mamlakatlarni ham bilishni, ulardagi katta-kichik daryolar, buloqlar, quduqlar, ko‘llar, sahro va cho‘llar, tog‘ va qirlarni bilishi uchun geografik bilimlar albatta zarur edi. Hattoki shaharlardagi karvonsaroylarda sayyohlarning hikoyalarini yozib oluvchilar ham bo‘lar edi. Bu

hikoyalar va yo‘l yozuvchilaridan to‘plangan ma’lumotlar keyinchalik geografik asarlar yozilishiga asos bo‘ldi. Shuni aytish lozimki, xalifalikda Xorazmiy gacha mukammal geografik asar yozilmagan edi. Xalifa al-Ma’mun (813-833) davriga kelib ilk geografik asarlar yozilishi boshlandi.

Al-Xorazmiyning geografik, ontologik qarshlarini tahlil etishdan avval Xorazmiy gacha bo‘lgan antik davr geografik tasavvurlari tarixiga to‘xtalib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz.

Ko‘pgina qadimgi xalqlarning geografik bilimlari, asosan, aholi yashaydigan Yerning markazi hisoblangan o‘z mamlakatiga va ularning yaqin qo‘snilariiga tarqaldi. Jumladan, finikiyaliklar keng miqyosda geografik bilimlarga ega qadimgi xalqlardan biri hisoblanadi. ularning kemalari O‘rtayer dengizi bo‘ylab hatto Atlantika okeanigacha suzib borishgan.

Qadimgi yunonlarning hamda Yevropa, Osiyo va Afrikaning ko‘plab mamlakatlari haqidagi geografik ma’lumotlarni Aristotelning “Meteorologika” asarida keltirilgan. Asarda mutafakkir o‘zining deterministik qarashlarini ilgari suradi, jumladan, atmosfera yog‘inlari, daryolarning hosil bo‘lishi, dengizlar va ulardagи oqimlar, shamollar va ularning hosil bo‘lishi, zilzilalar, vulqonlar haqida o‘ziga xos mulohazalar bildirgan.

Antik davr geografiyasini mubolag‘asiz yunonlarning geografiyasi deb qarash mumkin. Yunonlar tabiatan tirishqoq va sinchkov bo‘lib, olam tuzilishi, tabiat hodisalari, geografiya bilan juda erta

qiziqa boshlaganlar. Yunonlarning eng qadimgi yodgorliklari bo‘lgan Gomer (e.av. IX asr) va Gesiodning (e.av. IX asr) epos va dostonlarida geografik ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ushbu mutafakkirlarning asarlarida ontologik muammolar ham o‘z aksini topgan.

Gomer Yerning obod qismi har tomondan Okean bilan o‘ralgan va Quyosh Okeandan chiqib Okeanga botadi, deb hisoblagan.

MUHOKAMA. Xorazmiyning ontologik qarashlari “*Kitob surat al-arz*” (*Yerning surati kitobi*) asarida keltirilgan bo‘lib, unda yerning shakli va uning hududlari haqidagi ma’lumotlar faqat geografik emas, balki ontologik savollarga ham tegishli ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda Xorazmiy asarda “surat” so‘zini xarita ma’nosida ham ishlatgan.

Xorazmiy asarining to‘liq arabcha nomi “*Kitob-u surati al-arz min al-mudun val-jibol val-bihor val-jazoir val-anhor istaxrajahu Abu Ja‘far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy min kitobi Jug‘rofiyo allazi allafahu Baytlimiyus al-Qalavziy*” deb ataladi. Bunda “*Surati al-arz*” iborasi Ptolemy (II asr) asarining yunoncha nomi jumlasidan “*yerni tasvirlash*” ma’nosini bildiruvchi birinchi so‘zning tarjimasidir. Bu esa Ptolemeyning geografik asari bilan uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi.

“Ptolemy geografiyasi” kartografiya tarixidagi muhim asar bo‘lib, u miloddan avvalgi II asrda ma’lum bo‘lgan dunyoning to‘liq atlasini taqdim etadi. Ushbu kitob batafsil xaritalar, eslatmalar va illyustratsiyalar bilan to‘liq original matnning tajribali tahrirlangan va izohli versiyasini taqdim etadi. Ushbu kitob o‘zining puxta o‘rganilishi va tarixiy ahamiyati bilan geografiya, kartografiya yoki qadimgi madaniyatlar tarixiga qiziqqan har bir kishi uchun o‘qishi lozim deb o‘ylaymiz.

“*Kitob surat al-arz*” asarining yozilgan yili keltirilmagan bo‘lsa-da, olimning hozirgi kungacha yetib kelgan arab tilidagi uchta asaridan biri hisoblanadi. Sharqshunos olim V.V.Bartoldning ko‘rsatishicha, uning yozilish yili 836-yildan keyin, yoki 847-yildan oldin bo‘lishi kerak, deb ta’kidlaydi. Xorazmiy asarining nomi Ptolemy “Geografiya”sining tarjimasi emasligi yirik sharqshunoslar tomonidan isbotlangan va asarning

ilk nusxasida nomi “Rasm ar-rub’ al-ma’mur” ekanligi ham aytilgan. Ya’ni Ptolemeyning geografiyasi Xorazmiydan keyingina arab tiliga tarjima qilinganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Jumladan, xalifa Ma’mun davrida Ptolemeyning “Geografiya” asarini suryoniy tilidagi qayta ishlangan variantlaridan arab tiliga ilk tarjimalari amalga oshirilgan. Ptolemy “Geografiya”sining suryoniy tilidagi nusxalaridagi ma’lumotlar bir-biridan farq qilganligi u ma’lumotlarni qayta tekshirishga ehtiyoj tushadi.

NATIJALAR. Al-Xorazmiy VIII-IX asrlarda arab xalifaligida yashab, ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan bir davrda faoliyat yuritgan. Geografiyaga bo‘lgan qiziqish xalifalik hududining kengayishi va iqtisodiy ehtiyojlar bilan bog‘liq holda ortgan. Savdo karvonlari va yo‘lchilar orqali to‘plangan ma’lumotlar geografik asarlar yaratilishiga zamin hozirlagan.

Antik davrda yunon va rim olimlari geografik bilimlarni shakllantirgan. Aristotel, Gerodot, Eratosfen va Strabon kabi olimlar tabiat hodisalari va Yer shakli haqida fikr yuritganlar. Al-Xorazmiyning qarashlari ham shu ilm an’analarining ta’sirida bo‘lgan.

Al-Xorazmiyning “*Kitob surat al-Arz*” asari Ptolemy “Geografiya”sining ta’sirida yozilgan bo‘lib, u yer shakli va hududlari haqidagi ma’lumotlarni tasviriy va matematik yondashuv asosida bayon etgan. U yerni xarita orqali tushuntirishga harakat qilgan va geografiyani aniq fan sifatida shakllantirishga hissa qo‘shtan.

Asar ontologik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, yer shakli va hududlarining inson bilishi mumkin bo‘lgan haqiqat sifatida qaralishi ko‘zga tashlanadi. Al-Xorazmiyning geografik ma’lumotlari nafaqat yer shaklini aniqlash, balki inson jamiyatni va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni anglashga yordam beradi.

Xorazmiyning asarlari va ilmiy yutuqlari Islom olamida geografiya va kartografiyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning ishi keyingi asrlardagi olimlar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan va jahon geografiya fanining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shtan.

XULOSA. Al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” asari geografiya va tafakkur tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asar, o‘z davrining ilmiy yutuqlarini yoritib, Yerning shakli va hududlari haqidagi geografik ma’lumotlarni ilmiy va tasviriy usullarda bayon etgan. Al-Xorazmiy, Ptolemyning “Geografiya” asaridan ilhomlanib, geografiyani aniq fan sifatida shakllantirishga hissa qo’shdi va shu orqali ilm-fan rivojiga katta ta’sir ko’rsatdi. Asar, faqat geografik bilimlar bilan cheklanmay, Yerning ontologik mohiyati va insoniyat bilan aloqasini ko‘rib chiqadi, bu esa tafakkur tarixida yangi bir bosqichni boshlab berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мухаммад ибн Мусо Ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Тошкент, Фан, 1983, 276-277 бетлар. Яна қаранг: Ахмедов А. Мухаммад ал-Хоразмий. Тошкент Ўзбекистон, 2011.
2. Булгаков П.Г. Беруни и Хорезми. Математика и астрономия в трудах ученых средневекового Востока. Ташкент, 1977, с. 117-122.
3. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. Тошкент, 1981, 10-20 бетлар.
4. Файзуллаев О.Научное творчество Мухаммада ал-Хорезми. Ташкент, Фан, 1983, с.33.
5. Тўраев Б. International journal of philosophical studies and social sciences. ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 2, Issue 4 2022.
6. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 58-64.
7. Усмонов Ф.Н. Основные этапы развития научной рациональности //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 11. – С. 181-184.
8. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
9. Mavlanovna A.M. Symbolism In Art And Metaphorism, Metonymy As A Method Of Aesthetic, Spiritual-Psychological Assimilation Of Existence //Solid State Technology. – 2020. – Т. 63. – №. 6. – С. 3431-3437.
10. Husan M. Dialectics of Potentiality and Virtuality in Space and TIME //European Scholar Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 40-42.

